

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **628** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,9 %** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **584** taga oshgan.


2018 yilning yanvar-aprel oyida Namangan viloyatida 1291 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 % ga oshgan hamda ularning soni 707 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 628 ta (1,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20580 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (39,4%), Chust (7,9%), Namangan tumani (7,2%) va To'raqo'rg'on (5,9%) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Namangan viloyati	21650	100,0	20580	100
Namangan shaxar	8579	39,6	8111	39,4
Mingbuloq tumani	849	3,9	837	4,1
Kosonsoy tumani	1229	5,7	1139	5,5
Namangan tumani	1566	7,2	1481	7,2
Norin tumani	823	3,8	800	3,9
Pop tumani	1157	5,3	1075	5,2
To'raq'org'on tumani	1309	6,0	1217	5,9
Uychi tumani	1222	5,6	1209	5,9
Uchq'org'on tumani	1096	5,1	1081	5,3
Chortoq tumani	1069	4,9	1019	5,0
Chust timani	1725	8,0	1628	7,9
Yangiq'org'on tumani	1026	4,7	983	4,8


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan


2018 yil yanvar-aprel holatiga 1291 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (445 ta), Chust (108 ta), Uych (92 ta), Uchq'org'on (89 ta), Mingbuloq (88 ta), To'rq'org'on (80 ta), Namangan tumani (80 ta) Chortoq (68 ta), Pop (66 ta), Kosonsoy (62 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Norin (64 ta), hamda Yangiq'org'on (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (356 ta), boshqa turlarda (338 ta), savdoda (257 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (115 ta) va qurilishda (85 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (55 ta), yashash va ovqatlanish (41 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (22 ta) va axborot va aloqada (22 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p), savdoda (-1,5 f.p), qurilishda (-0,2 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-10,8 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+12,3 f.p.), tashish va saqlashda (+0,3 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,7 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,2	-1,0
Savdo	23,6	25,1	-1,5
Axborot va aloqa	1,5	1,5	0
Sanoat	19,7	7,4	12,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,2	18,0	-10,8
Qurilish	7,3	7,5	-0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,0	4,0	0
Tashish va saqlash	3,7	3,4	0,3
Boshqa turlari	30,8	30,1	0,7

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 may holatiga 20580 dan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5783 ta, oilaviy korxonalar – 280 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–9833 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari–27 tani va boshqalar 4657 tani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 108 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga yoki 1,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 73 tasi qo'shma korxonalar, 35 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 116 tani tashkil etib ularning asosiy qismi Namangan shahar 53 ta (45.7%), Uychi va Pop tumanida 9 tadan (7.8%), Namangan va Chust tumanlarida 7 tadan (6.0%), Chortoq tumani 8 ta (6.9%), Kosonsoy, To'raq'org'on, tumanlarida 6 ta (5,3%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Yangiqo'rg'on tumani 4 ta (3.4%), Norin, Uchq'org'on, tumanlarida 3 ta (2.6%), 1 ta (0.9%) Mingbuloq tumani hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 81 ta (75,0%), savdoda 10 ta (9,3%), boshqa turlarida esa 9 ta (8,3%) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta, tashish va saqlashda 1 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 6 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Namangan va Chortoq tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16341 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 1,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6929 tasi (0,4 %) Namangan shahriga, 1297 tasi (0,1 %) Chust tumaniga, 1246 tasi (0,1 %) Namangan tumaniga, 933 tasi (0,1 %) To'raq'org'on hamda 933 tasi (0,1 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16342 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4835 tasi (29,6%)—savdoda, 4012 tasi (24,5 %) - sanoatda, 1502 tasi (9,2 %) - qurilishda, 1469 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 816 tasi (5,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 744 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 297 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 357 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2310 tasi (14,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 1019 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 0,9 foizga kam. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (370 ta), Chust (85 ta), Uychi (75 ta) va To'raqo'rg'on tumanlarida (68 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchq'org'on (63 ta), Mingbuloq (52 ta), Norin (51 ta), Pop (48 ta) hamda Yangiq'org'on (41 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (356 ta), savdoda (257 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (114 ta) va qurilishda (85 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (22 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (22 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (41 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,6 % savdoda, 19,7 % sanoatda, 7,3 % qurilishda, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 may holatiga 285 tani tashkil etib, ulardan 280 tasi yoki 98,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,0 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 47,5 % yoki 133 tasi sanoat, 16,4 % yoki 46 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,6 % yoki 38 tasi savdo, 9,3 % yoki 26 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 2 tasi qurilish, 1,8 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 1,4 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,3 % yoki 26 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **A.Botirov**
(0369) 227-84-96